

# O'QITUVCHILAR FAOLIYATINI TALIS XALQARO DASTURI BILAN BAHOLASH ISTIQBOLLARI

Qarshiboyeva Xurinisa Karimovna  
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika  
instituti dotsent v.b

**Annotation:** maqolada ta'lismizda jahon standartlariga moslashish uchun O'zbekistonda TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyatini baholashning ahamiyati tahlil qilingan, mavzu bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Tayanch tushunchalar:** TALIS, xalqaro baholash, islohot, ma'lumot, ta'lismizda, o'qituvchi, bilim, ko'nikma, faoliyat, vazifa

**Annotation:** the article analyzes the importance of evaluating the activities of elementary school teachers based on the TALIS international program in Uzbekistan in order to adapt the education system to world standards, and gives recommendations on the topic.

**Keywords:** TALIS, international assessment, reform, information, education, teacher, knowledge, skill, activity, task

**Аннотация:** в статье анализируется важность оценки деятельности учителей начальных классов на основе международной программы TALIS в Узбекистане в целях адаптации системы образования к мировым стандартам, а также даются рекомендации по теме.

**Ключевые слова:** ТАЛИС, международная оценка, реформа, информация, образование, учитель, знание, навык, деятельность, задача

Hozirgi vaqtda jahon ta'lismiz sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Maqsad - ta'lismiz oluvchilarga qulay shakllarda, eng samarador texnologiyalar asosida bilim berish va har bir yangilikni ta'lismiziga joriy qilish. Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro ta'lismiz dasturlari va ta'lismiz tuzilmalari bizning mamlakatimiz uchun ham dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Natijada eng ulug' kasb egalari -

o‘qituvchilarning jamiyatimizdagi nufuzi va mas’uliyati zamonaviy talablar asosida tinimsiz oshib bormoqda.

Ma’lumki, ta’lim tizimida boshlang‘ich ta’lim bosqichi eng muhim bosqich sanaladi. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarning savodxonligini shakllantirish, dastlabki ta’lim va tarbiya jarayonini amalga oshirish, keyingi umumiyligi o‘rtasi va ixtisoslashtirilgan ta’lim bosqichlariga tayyorlash vazifasini ham bajaradi. Bugungi kunda barcha mamlakatlar ta’lim tizimining boshlang‘ich sinfi o‘qituvchilari faoliyatini baholash asosida sifatli ta’limga erishish harakatini amalga oshirmoqda.

Yurtimiz bo‘ylab ta’lim tizimi, ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichida ana shu jarayonlarga hamohang ravishda strategik islohotlar amalga oshirilayotganligi bejiz emas. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” dasturi bilan mamlakatimizda sifatli ta’limga erishish yo‘lida dolzarb vazifalar belgilangan. Chunki boshlang‘ich sinfi o‘qituvchilari faoliyatini baholab borish sifatli ta’limga erishishning muhim asoslardan biri hisoblanadi.

Jahon ta’lim tizimida bir qator xalqaro baholash dasturlari asosida o‘qituvchilar faoliyati o‘rganib borilmoqda. Ulardan biri TALIS (Teaching and Learning International Survey - O‘qituvchilarga xalqaro talablar asosida sharoit yaratish) xalqaro baholash dasturidir. Mamlakatimizda ham bu dastur asosida 2021 yildan boshlab Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ishtirokida o‘qituvchilarimiz faoliyatini baholash ishlariga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rilmoxda. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi 987-sont “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chotratadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida mamlakatimizda o‘qituvchilar faoliyatini TALIS xalqaro baholash dasturi asosida o‘rganib borish vazifasi belgilab berilgan.

TALIS xalqaro baholash dasturi quyidagi masalalarni o‘rganishga e’tibor qaratadi:

- 1) umumta’lim muassasalarida o‘qituvchilar faoliyatini o‘rganish;
- 2) ta’lim beruvchilar uchun yaratilgan ish sharoitini o‘rganish;
- 3) ta’lim muhitini o‘rganish.

TALIS xalqaro baholash dasturi mamlakatimiz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatini baholab, o‘qituvchilar mehnat samaradorligini oshirish bo‘yicha muhim nazariy, metodologik va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu jarayonlarning barchasi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholashning metodologik xususiyatlari muammosini maxsus tadqiq etish dolzarb mavzulardan ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020 yil 11 maydagi “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022 yil 21 dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘rida”gi Farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirl Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida qo‘yilgan vazifalar ijrosini ta’minlash uchun mamlakatimiz ta’lim tizimiga muhim yo‘nalishlarni belgilab bergan.

O‘zbek pedagog olimlaridan U.Begimqulov, R.Jo‘rayev, SH. Mardonov, R.Safarova, Sh. Olimovlarning ilmiy-tadqiqotlarida o‘qituvchilarning faoliyatini o‘rganish bo‘yicha muhim nazariy qarashlar bayon qilib o’tilgan.

O‘zbek olimlaridan G. Muhamedov, S. Matchonov, U. Xodjamqulov, X. Murodov tadqiqotlarida ta’lim muhitini o‘rganib borish va ular asosida ta’lim muhitini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xorij pedagog olimlaridan K. Rojers, N. Bernshtam, A. Xumayni ham bu masalalarni tahlil qilib, dunyo mamalakatlari ta’lim faoliyatini xalqaro dasturlar asosida baholash metodlari bo‘yicha tavsiyalar shakllantirgan.

Ayni paytda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholashning metodologik xususiyatlari muammosi maxsus tadqiqot sifatida o‘rganilgan emas. Mazkur muammoni maxsus dissertatsion shaklda o‘rganish bugungi kunda juda dolzarb bo‘lib turibdi.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ko‘rsatilgan asosiy masalalardan biri mamlakatda sifatli ta’limga erishish bo‘lib, bu maqsadni amalga oshirish esa bevosita o‘qituvchilarning faoliyat samaradorligiga asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasi ta’limni rivojlantirish dasturlarida ham o‘qituvchilarning faoliyatini o‘rganish vositasida ularning mehnat samaradorligini baholash vazifalari qo‘yilgan. Masalan, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturining 2-yo‘nalishini olaylik. Unda “Ijtimoiy islohotlar”da “jamiyatda o‘qituvchi kasbining nufuzini oshirish va ularning sharoitlarini yaxshilash asosiy vazifalardan biri” sifatida belgilangan. Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar faoliyatini muntazam baholab borish muhimligini belgilaydi. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilar faoliyatini baholashning zaruriyati tahliliga e’tiboringizni qaratamiz. [2, 4 b].

**O‘qituvchilar faoliyatini baholash xalqaro dasturlarining maqsadi** – bu ularning bilimi, ko‘nikmasi va malakasini o‘rganishdan iborat. Ammo shunga e’tibor qaratish lozim, “o‘qituvchilar faoliyatini baholash” degani “o‘qituvchilar faoliyatini tekshirish” degani emas. Chunki baholash dasturlari o‘rganish metodiga tayanadi va tekshirish deganda esa o‘qituvchining o‘z vazifasini bajarishiga asosiy e’tiborni qaratadi. Hamda o‘qituvchilar faoliyatini baholashda o‘rganishning turli vositalari, metodlari va mezonlariga asoslanadi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyatini baholashda quyidagilarga asoslanish muhim ahamiyatga ega:

1. O‘qituvchining kasbiy bilimini baholash zaruriyati. Bunda amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy bilim darajasi quyidagi bir necha mezonlarga ko‘ra baholanadi:

- o‘qituvchilarning kasbiy bilimi ilmiy asoslarga tayanganligi;
- o‘qituvchilarning kasbiy bilimi nazariy asosga egaligi;
- o‘qituvchilarning kasbiy bilimi ma’lumotlar bilan boyitilganligi.

O‘qituvchining kasbiy bilimi ilmiy asoslarga egaligi uning yetuk mutaxassis ekanligini ko‘rsatadi. Misol uchun, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi boshlang‘ich

ta’lim o‘quv fanlarining asoslari bo‘yicha ilmiy tushunchalarga ega bo‘lishi va boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy bilimi nazariy asosga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Chunki o‘qituvchi ta’lim berish nazariyasidan xabardor bo‘lishi kerak. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy bilimida aniq, tabiiy va gumanitar o‘quv fanlari bo‘yicha ham turli ma’lumotlar bo‘lishi talab etiladi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy bilim darajasini o‘rganishda uning mutaxassis sifatidagi ilmiy-nazariy tushunchalari aniqlanadi. Bu ishda turli metodlar va vositalarga tayaniladi. Keyingi paytlarda bu borada maxsus savolnomadan iborat Test metodidan foydalanish ommaviy tus olgan bo‘lib, bunday testlarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy bilim darajasini aniq ko‘rsatadigan savolnomalar aks etadi.

Xorijlik pedagog olim Karl Tomson tomonidan mutaxassislarning kasbiy bilim darajasini aniqlash testi ishlab chiqilgan bo‘lib, dunyo mamlakatlari ko‘p hollarda ana shu testga asoslanadi. Mazkur Testning quyidagi savollariga namuna sifatida e’tibor bering:

1. Ilmiy tushuncha nima?

- a) isbotlangan haqiqat
- b) asoslangan fikr
- v) bilmayman

2. Ilmiy faraz nima?

- a) isbotlangan fikr
- b) bashorat qilish
- v) bilmayman

Mazkur namunadan ma’lum bo‘ladiki, K.Tomsonning testida asosiy e’tibor o‘qituvchilarning ilmiy tushunchasini aniqlashga yo’naltirilgan. Haqiqatdan ham o‘qituvchi kasbining asosi ilmiy bilimlardan iborat bo‘ladi.

2. Kasbiy ko’nikmasini baholash. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyatini baholash uchun ularning kasbiy ko’nikmasi darajasini aniqlashda quyidagilarga e’tibor beriladi:

- o‘qituvchining o‘z uslubiga ega ekanligi;
- o‘quvchilar bilan individual ishlay olishi;
- o‘qituvchining kasbiy faolligi.

Pedagogika nazariyasi va tarixida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z uslubiga ega bo‘lishi har tomonlama asoslab berilgan. Bunda o‘qituvchi o‘qitish va tarbiya jarayonida eng samarali uslublarga tayanishi kerak. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi butun faoliyati davomida o‘zining uslubiga ega bo‘lib boradi. Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har bir o‘quvchi bilan individual ishlay olishi kerak. Bugungi kunda shu masalada muayyan murakkabliklar mavjud. Chunki har sinfda 30 dan ortiq o‘quvchi bor bo‘lib, ularning har biri bilan individual ishlash uchun o‘qituvchiga vaqt yetishmaydi. Bu narsani e’tiborga olgan holda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturida o‘quvchilarning miqdorini 20 nafar qilib belgilash vazifasi qo‘yilgan va bu hol o‘qituvchining har bir o‘quvchi bilan individual ishlash imkonini beradi.[1] Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy faolligi o‘qituvchi mashg’ulotlarining qiziqarliligi, qo‘sishma ma’lumotlar bilan ishlashi har bir o‘quvchida mustaqil fiktni tarkib toptirishi bilan belgilanadi. [3, 5 b].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy ko‘nikmasini baholashga alohida yondoshish kerak. Bu narsa o‘qituvchi faoliyatining asoslarini to‘g‘ri baholash imkonini beradi.

3. O‘z ustida ishslash malakasini baholash. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining faoliyatini baholashda uning o‘z ustida ishslash malakasini o‘rganish uchun quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- darsliklar bilan ishslash malakasi;
- qo‘sishma ma’lumotlar bilan ishslash malakasi;
- o‘z tajribasini ayirboshlash malakasi.

Tadqiqotda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

-TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatini baholashning nazariy masalalarini o‘rganish;

-TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini baholashning hududiy usulini ishlab chiqish;

-TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini baholashning markaziy usulini yaratish;

-TALIS xalqaro dasturi asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini baholash samaradorligi bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va ularning natijalari asosida tavsiyalarni shakllantirish.

Natijada boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida hududiy baholash usulining asoslari, shakllari va mexanizmlari ishlab chiqiladi va ta'lim tizimi faoliyatini baholash davlat tashkilotlariga taqdim etiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholashning markaziy usuli yaratilib, uning modeldashtirilgan shakli ta'lim samaradorligini baholashning respublika davlat boshqaruvi muassasalariga tavsiya etiladi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazilib, ularning natijalari asosida muammoning yechimi bo'yicha tavsiyalar shakllantiriladi.

Demak, qo'yilgan masala bo'yicha ushbu xulosalarga kelish mumkin:

1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida va uning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" davlat dasturida o'qituvchilarning jamiyatdagi nufuzini ko'tarish, ularga munosib ish sharoitlari yaratib berish hamda o'qituvchilar faoliyat samaradorligini oshirish vositasida sifatli ta'limga erishiladi.

2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini haqqoniy baholashning zaruriyati ularning kasbiy bilim, ko'nikma darajalarini va o'z ustida ishlash malakasini baholash bilan aniqlanadi. Bunda TALIS xalqaro dasturining qoidalari va talablariga asoslanish muhim ahamiyatga ega.

3. TALIS xalqaro dasturining maqsad va vazifalari o'qituvchilar faoliyati, ularning ish sharoiti va mактабдаги та'лим мухитини баҳолашдан иборатлиги ўртимиз та'лим тизимда исхлайотган бoshlang'ich sinf o'qituvchilarining ish sharoitlari, malaka darajasi o'rganishni taqozo qiladi.[4]

4. TALIS xalqaro dasturi asosida Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyatini baholash bilan mazkur yo‘nalishda yangi rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish mumkin bo‘ladi. Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘qituivchilari faoliyatini TALIS xalqaro dasturi asosida baholashning nazariy masalalari ko‘lamini muhimligini va dolzarbligini ko‘rsatadi.

**Adabiyotlar:**

1. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug’at.- Toshkent, 2009
3. Jabborova O. va boshq. Boshlang‘ich ta;lism pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi.- Toshkent, 2021
4. Qarshiboyeva, X. K. (2020). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili va o‘qish darslarida nutqiy faoliyatini takomillashtirish yo’llari. *Konferensiya*, 1(1), 379-382.
5. Abdiyeva, G. B., & Qarshiboyyeva, X. K. (2022). Dars jarayonlarida pedagogik texnologiyalarni qo’llash orqali ixtirochilikka oid kompetensiyalarini shakllantirish. *Eurasian Journal Of Social Sciences, Philosophy And Culture*, 2(1), 91-94.
6. Qarshiboyeva, X. K. (2023). TALIS xalqaro baholash dasturining ahamiyati va afzallikkari. *Mugallim ilmiy metodik jurnali*, 1(3), 72-77.
7. Qarshiboyeva, X. K. (2021). Yozma savodxonlikni oshirishda boshlang‘ich sinflarda chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish. *Konferensiya*, 1(1), 286-289.